

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

P.S.Otaqulov	
Geografik nomlarni o'rganishga ijtimoiy-ekologik yondashuv	92
B.M.Dehqonov	
Andijon viloyati ekin yerlari monitoringi va uni baholash	97
X.Sh.Djo'raboyeva	
An'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishida geografik omillarning o'rni.....	101
	ILMIY AXBOROT
M.K.Usmonaliyeva	
Chor Rossiyasi hukmronligi davrida turkiston o'lkasida milliy matbuotning vujudga kelishi.....	105
O.N.Fozilova	
Oybekning bolalarga atalgan hikoyalarida qahramon talqini.....	108
J.J.Mamatisakov	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning innovatsion - pedagogik modeli	113
N.B.Yuldasheva	
Ingliz va o'zbek tillari matnlaridagi paremiyalarni tadqiq etishning muxim jihatlari.....	121
G.O.Abdujalilova	
Ekspozitsiya va uning badiiy-estetik funksiyasi	124
X.Z.Umarova	
Epistolary lines: the transformative power of letters in saul bellow's novel «Herzog»	127
D.Hakimova	
Yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish	130
G'.M.Alamov	
Xalq o'yinlari va milliy bellashuvlarning o'quvchi-yoshlarni tarbiyalovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati	135
A.K.Xudayberdiyev, M.J.Usmonova	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li-ta'lim sifatini oshirish.....	139
S.R.Xoliqov	
Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviyati va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari	143
M.A.Алиева	
Неомифологизм в творчестве дмитрия сергеевича мерещковского	147
A.Y.Ergashev	
Yangi O'zbekistonda pedagogning maqomi: ijimoiy-falsafiy tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari	152
Z.X.Oxunova	
Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-antropologik mazmuni	155
X.J.Isomiddinov	
Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning tarixiy-falsafiy jihatlari.....	158
R.D.Mustayev	
Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati	161
B.I.Muxtoraliev	
Ilk hikoyalaridagi ijodiy o'ziga xoslik	165
D.S.Abdugodirov	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	171
M.M.Azizov	
Methodology of optimizing sports and health programs through scandinavian walking	174
A.U.Xamidjanov	
Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlari o'rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi.....	181
G.T.Dadamirzayeva	
Inson salomatligi va ruhiyatiga musiqaning ta'siri.....	191

YANGI O‘ZBEKISTONDA JINOYAT VA JAZO TUSHUNCHALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA IJTIMOY-ANTROPOLOGIK MAZMUNI**СПЕЦИФИКА И СОЦИАЛЬНО-АНТРОПОЛОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЙ ПРЕСТУПЛЕНИЯ И НАКАЗАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ****SPECIFIC CHARACTERISTICS AND SOCIO-ANTHROPOLOGICAL CONTENT OF CONCEPTS OF CRIME AND PUNISHMENT IN NEW UZBEKISTAN****Oxunova Zilolaxon Xasanovna¹**¹Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Maqolada Yangi O‘zbekistonda jinoyat va jazo tushunchalarining o‘ziga xos xususiyatlari, zaruriyati, bugungi kundagi dolzarb masala ekanligi tadqiq qilingan hamda ushbu jarayonda uning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy, ma’naviy, huquqiy tasnifi va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье исследованы особенности, необходимость и актуальность понятий преступления и наказания в Новом Узбекистане, при этом проанализированы его социально-философская, нравственная, духовно-правовая классификация и специфические особенности.

Abstract

In the article, the specific features, necessity, and actuality of the concepts of crime and punishment in New Uzbekistan were researched, and in this process, its socio-philosophical, moral, spiritual, legal classification and specific features were analyzed.

Kalit so‘zlar: jinoyat, jazo, jinoyatning tarixiy taraqqiyoti, jinoyat huquqi, jinoyatchilikka barham berish, liberallashtirish, ijtimoiy-antropologik xususiyatlar.

Ключевые слова: преступление, наказание, историческое развитие преступности, уголовное право, ликвидация преступности, либерализация, социально-антропологическая характеристика.

Key words: crime, punishment, historical development of crime, criminal law, elimination of crime, liberalization, socio-anthropological characteristics.

KIRISH

Jahonda jazo tayinlash tizimiga oid qonunlarning to‘g‘ri qo‘llanilishini ta‘minlash siyosatini o‘rganish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bu boradagi faoliyatini samarali tashkil qilish masalalari bo‘yicha ilmiy tahlillar o‘tkazilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, jazoni individualashtirish, jinoyat sodir etishning oldini olishga qaratilgan xulq-atvorni rag‘batlantirish, bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash bo‘yicha qonun normalarini takomillashtirish va milliy qonunchilikka ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi hamda xalqaro standartlarning implementatsiyasini kuchaytirish, jinoyatlar retsidivini oldini olishning yangi profilaktik choralari va yanada samaraliroq mexanizmini ishlab chiqish, qonunni qo‘llash amaliyotini yaxshilash yo‘nalish va istiqbollari tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jinoyat va jazo tushunchalarining o‘ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-falsafiy mazmuni bo‘yicha G.Z.Anashkin, M.I.Bajanov, E.Borisov, Y.Blagov, D.Dyadkin, V.K.Duyunova, V.D.Solovyev, S.G.Spivak, N.N.Krupskaya, F.Ruchkin, K.Mixaylov, T.V.Gubayev kabi tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Insoniyat tarixiga nazar solinsa, jinoyat salbiy ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida doimo tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida insoniyatga hamroh bo‘lib kelganiga guvoh bo‘lish mumkin. V.A.Bachining so‘zlari bilan aytganda: «Sivilizatsiya mavjud bo‘lganidan buyon insoniyat mavjudligining haqiqiy fojiasi kundalik jinoyatlar orasida yashash, ularning jirkanch mohiyatini ko‘rish, ularning barcha daxshatlarini tushunish va shu bilan birga, qat‘iy qaror qabul qilish uchun yetarli ma’naviy kuchga ega bo‘lmaslikdir». Turli mamlakatlarda ilmiy (nazariy, jinoyat huquqi, kriminalistik boshqa) yutuqlarga, shuningdek, ushbu illatga qarshi kurash bo‘yicha davlat huquqiy siyosati doirasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, bugungi kunda ham jinoyatchilikka barham berish

muammosi hal etilmagan. Bugungi kunda jinoyat va jazo tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyatini tadqiq etish kun tartibidagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Jinoyat – axloqiylik tamoyillari asosida tarkib topgan huquqiy talablar, qonun-qoidalar ustuvor bo'lgan fuqarolik jamiyatida ushbu meyorlarga mensimasdan munosabatda bo'lish oqibatida shaxsiy manfaatlar ustunligi hamda o'zgarlar haq-huquqlarini buzish natijasida sodir etilgan hodisa hisoblanadi.

Kriminologiya fani esa jinoyat – bu jinoyatchilikning individuallashtirilgan (muayyanlashtirilgan) ko'rinishi deb tushuntiradi. Aytish mumkinki, jinoyat individual ahamiyatga ega tushuncha hisoblanar ekan. Shu nuqtai nazardan kriminologiya ayrim jinoyatni emas, balki ularning majmui – «jinoyatchilik»ni o'rganadi. Shu bois jinoyatchilik jinoyatlarning oddiy yig'indisi emas, balki ayrim jinoyatlardan farq qiladigan, yangi, yaxlit va uzviy hodisadir.

Falsafiy kategoriya sifatida jinoyat tushunchasi kishilarning muayyan nopok maqsadlarini amalga oshirish yo'lidagi amaliy xatti-harakatlari majmuasini aks ettiradi. Bashariyat taraqqiyoti davomida jamiyat rivoji va ravnaqi uchun xizmat qiluvchi ezgu muddaolarni maqsad qilib olgan hodisalar qatori unga zid ravishda, ba'zan jinoyat turkumiga kiruvchi hodisalar ham sodir etilib keladi. Bu hodisalar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmaydi, balki uni tanazzulga yetaklaydi. Shu bois jamiyat a'zolari hamda turli ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy institutlar tomonidan jinoyat hodisasi qoralanib keladi va unga qarshi kurash olib boriladi. Bu yo'lda dastavval jinoyatni keltirib chiqaruvchi sabablar va motivlarni aniqlash muhim. Zero, har qanday jinoyat, avvalo, ijtimoiy hodisa sifatida tasodifan ro'y bermaydi. Hattoki, ba'zan ehtiyotsizlik oqibatida tasodifan ro'y bergan jinoyat deya talqin etiladigan hodisa ham, aslida muayyan ijtimoiy ildizlarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bu hodisaning shart-sharoitlarga bog'liq sabablarini aniqlamasdan, unga qarshi kurash ko'zlangan samarani bermaydi. Faqat shundan so'nggina turli usul va vositalar yordamida unga qarshi kurashish lozim bo'ladi. Agar jinoyatga qarshi kurash olib borilmasa, bir jinoyatning ikkinchi jinoyatni keltirib chiqarishi xavfi ortib boradi. Bu esa, jamiyat hayotida jinoyatchilik deb atalmish hodisaning ildiz otishiga olib keladi. Bu holda jamiyatning ma'naviy hayotiga katta putur yetadi. Jinoyatchilik tufayli davlat va jamiyatga katta moddiy va ma'naviy zarar yetishi, kishilarning tinch-osoyshta turmushi izdan chiqishi, davlat boshqaruvidagi barqarorlik o'rniga beqaror tartibsizliklar ro'y berishi mumkin. Binobarin, jinoyat amaldagi axloqiy, ma'naviy, huquqiy tamoyillar hukmron bo'lgan jamiyat hayotiga yot hodisadir.

“Jinoyat” tushunchasiga ilk bor 1791-yilda qabul qilingan Fransiya Jinoyat kodeksida tarif berilgan bo'lib, ushbu ta'rif formal tusga ega edi. Unda jinoyatga: “Jinoyat bu – amaldagi jinoyat qonuni bilan jazolanadigan qilmishdir”, – deya ta'rif berilgan edi.

Jinoyat bu – ijtimoiy va huquqiy hodisa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyat tushunchasi aniq belgilangan bo'lib, 14-moddaning 1-qismiga ko'ra, Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Jinoyat – shaxsning jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ma'lum bir shakldagi xatti-harakati hisoblanadi.

Jinoyat tushunchasi harakat yoki harakatsizlik shaklidagi shaxsning xulq-atvori (xatti-harakati, faoliyati)ni ifodalaydi. Shu bilan birga, jinoyat qonunida ruhiy jarayonlar, o'ylar, fikriy xulosalar qanchalik zarar keltiruvchi bo'lishiga qaramay, jinoyat hisoblanmasligi belgilab qo'yilgan.

Darhaqiqat, jinoyatchilik nisbatan ommaviy xususiyatga ega bo'lgan va ayni vaqtda odamlar va jamiyat manfaatlariga oshiqcha ijtimoiy xavf tug'diradigan, amaldagi jinoyat qonunchiligida jinoyat deb e'tirof etilgan ijtimoiy belgilangan qilmishlar (harakatlar yoki harakatsizlik)ning muayyan majmuidir. Binobarin, yuridik adabiyotlarda “jinoyatchilik– 1) davlat va huquq nazariyasi, kriminologiya asoslariga ko'ra, jinoyatchilik keng ma'noda u yoki bu jamiyatdagi barcha qonunbuzarliklarning umumlashgan tushunchasi sifatida qo'llaniladi; 2) tor ma'noda jinoyat va uning mavjudligi tushuniladi va aynan jinoyatchilikka oid qonunlarni buzish jinoyatchilik deb ham o'rganiladi” degan ta'rif berilgan.

Ma'lumki, jinoyatchilikka karshi kurashda va uning oldini olishda qo'llaniladigan asosiy vositalardan biri, bu jinoiy jazo hisoblanadi. Yuridik adabiyotlarda jazo tushunchasi, uning maqsadlari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jazoning mohiyati va yuridik tabiatini ochib berish, jinoyat huquqida markaziy masalalardan biri bo'lib, usiz jazoning mazmun va maqsadi, tarbiyaviy va ogohlantiruvchi ahamiyati to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin emas. Jinoyat va jazo hayotdagi turli hodisalar bo'lib, o'z navbatida, ularning bir-biri bilan bog'liqligini inkor etib bo'lmaydi. Jinoyat – alohida shaxs tomonidan (guruh) qonun normalarini buzib, muayyan harakat yoki harakatsizlikni sodir etish bilan bog'liq bo'lsa, jazo – davlatning majburlov chorasi bo'lib, uning jinoyat sodir qilgan shaxsning jinoiy xulqiga nisbatan munosabatidir. Ya'ni jinoyat va jazo bir-biri bilan bog'liq va ajralmas bo'lib, bir-

birisiz mavjud bo'lmaydi, ular harakat va qarshi harakat, xavf va ushbu xavfni bartaraf etuvchi, zarar (yovuzlik) va unga qarshi kurashuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun bu borada N.S.Tagansev «jinoiy qilmish haqidagi tushunchadan, jazo ushbu qilmishni sodir etgan shaxs bilan davlat o'rtasidagi alohida munosabat ekanligi kelib chiqadi», deb ta'kidlagan edi. Demak, jazo davlat bilan jinoyat sodir etgan shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatlar ifodasi hisoblanadi. Ushbu holat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra «Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun kodeks javobgarlikning asoslari va prinsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari belgilaydi.

Jinoyat va jazo huquq institutlari sifatida turli tarixiy huquqiy yodgorliklarda, keyinchalik qonun hujjatlarida ham huquqiy mustahkamlanishni topdi. Odamlar har doim qonun hujjatlarida ularni aks ettirish uchun jinoyat va jazoning maqbul tuzilishini, ushbu hodisalarning maqbul ta'riflarini topishga harakat qilganlar. Davlatning qonun ijodkorligi faoliyati kuchaygani, normativ hujjatlar va ularni ijro etishning texnik-huquqiy normalari takomillashgani sari jinoyat va jazo tuzilmalari o'zgartirildi. Inson manfaatlariga bevosita dahldor jinoyat va jazo muammosi faylasuflar, huquqshunoslar, sotsiologlar va boshqa bilim sohalari vakillarining diqqat markazida edi. Badiiy nasr namoyondalari o'z asarlarini jinoyat va jazoga bag'ishlaganlar. Shu nuqtai nazardan, jinoyat va jazo muammosi ko'p qirrali sanaladi. Bu muammoning turli jihatlarini bo'yicha turli falsafiy, axloqiy, sotsiologik, diniy va boshqa fikrlar bildirilgan, ularning tushunchalari, xususiyatlari, maqsadi, turlari va boshqalarning turli talqinlari ilgari surilgan. Yana alohida ta'kidlash kerakki, bularning barchasi muammoning dolzarbligining isboti bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Jinoyat va jazo muammosini hal etish milliy va xalqaro xavfsizlik, inson huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi ekstremizm, terrorizm, islom radikalizmi, transmilliy jinoyatlar, kiberjinoyatchilik va boshqa jinoyatlarga qarshi kurashish nuqtai nazaridan, shuningdek, maqsadlarni ishlab chiqish nuqtai nazaridan dolzarbdir. Hamda jinoiy jazo turlari, ularni insonparvarlashtirish tendensiyasi va yana bir qator jinoiy harakatlarni dekriminallashtirish ham ahamiyatli hisoblanadi. Jinoyat va jazoning asosiy muammosi axloq bilan bog'liq. Shu boisdan ham jamiyatda eng avvalo, axloqiy madaniyat, axloqiy tushuncha va normalarning keng targ'ibot ishlarini tashkil etmoq darkor. Bu esa jamiyatda sodir bo'ladigan jinoyatlarning qisman bo'lsada kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. Hamda shuni qo'shimcha sifatida aytish lozimki, har qaysi davlatning har qanday fuqarosida axloqiy norma va tushunchalarga nisbatan bilim doirasi keng bo'lar ekan, shu mamlakatda jinoyat bilan bog'liq salbiy voqea-hodisalarning soni ham keskin tushishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алексеев, С.С. Проблемы теории права: в 2-х т. Т. 1 / С.С. Алексеев -Свердловск, 1972.-396 с. 59.
2. Қодиров Э. Ёшлар жиноятчилигининг олдини олиш масалалари //– Тошкент.: Республика Маънавият тарғибот маркази, Тошкент давлат юридик университети. 2017. – -Б. 19.
3. Юридик энциклопедия /Юридик фанлар доктори, профессор У.Таджихановнинг умумий таҳририда. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 163.
4. [https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/Jinoyat va jinoyatchilik tushunchasi](https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/Jinoyat%20va%20jinoyatchilik%20tushunchasi)
5. [https://lex.uz/docs/Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси](https://lex.uz/docs/Ўзбекистон%20Республикасининг%20Жиноят%20кодекси)